

*Adabiyot – xalqning qalbi, ma’naviyatining ko‘zgusi. Zamonaviy murakkab dunyoda, nasr va she’riyatning nufuzli kuchidan foydalanib, odamlarning qalbiga kirib, ularni ezgu maqsadlarga yo‘naltirish kerak. Ota – bobolarimiz merosini o‘rganish, buyuk adabiyotni yaratish, ulug‘vor madaniyatimizga munosib bo‘lish uchun barcha sharoitlarni yaratamiz.*

Shavkat Mirziyoyev

**Toshkent davlat transport universiteti**

**(O‘zbekiston Respublikasi)**

**O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi**

**O‘zbekiston oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

**O‘zbekistondagi Geydar Aliyev nomli Ozarbayjon madaniy markazi**

**B. Osmonov nomli Jalol-obod davlat universiteti (Qirg‘ziston Respublikasi)**

**Rossiyaning Toshkentdagi fan va madaniyat markazi**

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**

**HAMKORLIGIDA**

***“Maqsud Shayxzodaning adabiy merosi va zamonaviylik”***

**(Shoir tavalludining 112 yilligiga)**

**Xalqaro ilmiy – amaliy onlayn anjuman tashkillashtirilmoqda**

**2020-yil 5-noyabr.**

**Soat 10:00 - 18:00 (Toshkent vaqti bilan)**

**Boku, Jalol-obod, Toshkent.**

**Hurmatli hamkasblar!**

Sizni shoir tavalludining 112 yilligi arafasida o‘tkazilayotgan **“Maqsud Shayxzodaning adabiy merosi va zamonaviylik”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konfrensiyada ishtirok etishga taklif qilamiz.

Konfrensiya mavzusi XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi va o‘tgan asr badiyat xazinasiga munosib hissa qo‘shgan atoqli shoir Maqsud Shayxzodaning ijodi bilan bog‘liq. Shoir, dramaturg, olim, jahon adabiyoti mumtoz asarlarining mohir tarjimoni Maqsud Shayxzoda “... O‘zbek va Ozarbayjon xalqlarining tarixiy va ma’naviy yaqinligining ramzi edi...”

### **Konfrensiyaning maqsadi:**

- Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodini o‘rganish;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi № 502 sonli qarori ijrosini ta’minlash.

### **Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ishlarni rejalashtirgan:**

- Maqsud Shayxzoda va XX asr o‘zbek she‘riyati.
- Maqsud Shayxzodaning ilmiy merosi.
- XX asr adabiy jarayoni va Maqsud Shayxzoda dramaturgiyasi.
- Maqsud Shayxzoda – jahon mumtoz adabiyoti asarlarining tarjimoni.
- Maqsud Shayxzoda – zamondoshlari xotirasida

**Tili:** o‘zbek, rus, ingliz

Konfrensiya ishtirokchilari alohida faylda sho‘ba, muallif haqida ma’lumot, elektron manzil va telefon raqamini ko‘rsatishlari kerak.

### **Konferensiya ishtirokchilari uchun anketa**

1	Familiya, ismi, sharifi	
2	Maqolaning nomi va hajmi	
3	Sho‘ba raqami	
4	Ishxona yoki ta’lim muassasasining nomi (muassasaning to‘liq nomi)	
5	Lavozimi, ilmiy darajasi, unvoni	
6	E-mail	
7	Kontaktlar uchun telefon raqami	

### **Ro‘yxatdan o‘tish va ishtirok etish**

- Ro‘yxatdan o‘tish uchun to‘lov taqdim etilmaydi
- Ro‘yxatdan o‘tish onlayn shaklida quyidagi havola orqali amalga oshiriladi: <https://lomonosov-msu.ru/rus/service/university/add>
- Maqolalar **2020-yil 1-noyabrgacha** tashkiliy qo‘mitaning elektron pochta manzilida qabul qilinadi.

### **Maqolalarga qo‘yiladigan talablar:**

Matn formati: MS Word, shrift Times New Roman, 14. Hajmi: 2 sm - yuqori va o‘ngdan, 3 sm - chap va 1,5 sm - pastdan. Sarlavha katta harflar bilan, qalin va avtomatik ravishda o‘rtada yoziladi. Quyida bir intervalda, kichik harflar bilan - muallifning to‘liq familiyasi, ismi, sharifi, ilmiy darajasi, unvoni (agar mavjud bo‘lsa) yoziladi. Keyingi satrda – tashkilotning to‘liq nomi, shahar nomi. Maqola

tilida va ingliz tilidagi annotatsiya bir interval oraliqda (kamida 100 soʻz), kalit soʻzlar (5-6), quyida bir intervalda matn, abzasning chizigʻini - 1 sm oʻlchamda yozish talab qilinadi. Adabiyotga havolalar kvadrat qavsda [Pavlov 2011: 19] beriladi. Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidagi manba mualliflarining familiyalari alifbo tartibida yoziladi. Adabiyotlar roʻyxatidan soʻng mualliflar haqida maʼlumot beriladi (namuna alohida faylda taqdim etiladi).

Rasmlar nomi va raqami rasmlarning ostida beriladi (agar mavjud boʻlsa).

Maqolaning hajmi 3 betdan 6 betgacha. Material tashkiliy qoʻmitaga elektron shaklda topshirilishi kerak. Maqolada keltirilgan dalillarning toʻgʻriligi va ishonchliligi uchun mualliflarning oʻzlari javobgar. Talablarga javob bermaydigan maqolalarni joylashtirish yoki qaytarish uchun tashkilotchilar javobgar emas.

### **Sertifikat va nashr**

**Sertifikat:** Sertifikatlar konferensiyadan keyin bir oy davomida ishtirokchilarga yuboriladi.

**Nashr:** Tanlangan maqolalar elektron jurnalda nashrga tavsiya qilinadi. Qoʻshimcha maʼlumot uchun anjuman tashkiliy qoʻmitasiga murojaat etishingizni soʻraymiz: [@Kh\\_vazira](mailto:shayxzoda112@yandex.ru)

**Indeksatsiya:** maqolalar Google Scholar da indekslanadi

### **Tashkilotchilar:**

- Toshkent davlat transport universiteti, yoshlar bilan ishlash va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻlimi, oʻzbek (rus) tili, tillar-2 kafedralari;

### **Hamkorlar:**

- Oʻzbekistondagi Geydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniy markazi;  
- Qirgʻiziston Respublikasi, B.Osmonov nomidagi Jalol-obod davlat universiteti;  
- Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti

## **Konferensiya tashkiliy qo‘mitasi :**

Tashkiliy qo‘mita raisi: Abduraxmanov O. K. (O‘zbekiston)

Tashkiliy qo‘mita raisi  
o‘rinbosarlari: Baratov D. X. (O‘zbekiston)  
G‘ulamov A. A. (O‘zbekiston)

Anjuman dasturiga  
mas‘ullar: Hasanova V. X. (O‘zbekiston)  
Mustaeva G. S. (O‘zbekiston)

Muharrirlar : Muratova G.S. (O‘zbekiston)  
Baltayeva A.T. (O‘zbekiston)  
Achilov O. (O‘zbekiston)

Dastur qo‘mitasi a‘zolari :  
Akademik : Karimov N.F. (O‘zbekiston)  
Akademik : Nazarov B.A. (O‘zbekiston)  
Mirzaxidova M.I.(Qirg‘iziston)

**Tashkiliy qo‘mitaning manzili:** 100167, O‘zbekiston, Toshkent shahri,  
Temiryolchilar ko‘chasi -1. Toshkent davlat transport universiteti.

Tashkiliy qo‘mitaning aloqa raqamlari:

e-mail: [shayxzoda112@yandex.ru](mailto:shayxzoda112@yandex.ru)

telegram: @Kh\_vazira

Tel.: +99899 866-34-03 (Балтаева Анаджан Таджибаевна – ўзбек тили)

+99999 899-29-57 (Хасанова Вазира Хамиджановна – русский язык)

+99891 334-31-21 (Achilov Oybek – in english)